

O'ZBEKISTONDA UZUM EKSPORTINING RIVOJLANISHI

S.N.Muhammadaminov

talaba

N.A.Ashurmetova

Ilmiy rahbar: i.f.n., dotsent

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida qishloq xo'jaligi ekinlari, ayniqsa, uzum yetishtirishda xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish muammolari ilmiy jamoatchilik bilan bir qatorda hukumat va ishlab chiqarish mutaxassislarining ham diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Samaradorlikni oshirish bo'yicha rejalashtirilgan chora-tadbirlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish texnologiyalari, jumladan, o'sishning o'ziga xos sharoitlariga moslashgan navlar va ularni yetishtirishning tejamkor usullariga birinchi darajali ahamiyat beriladi. Bu ko'p yillik ekinlarga, ayniqsa uzumni yetishtirishda muhimdir.

Ma'lumki, uzum etishtirishda ko'p sonli texnologik operatsiyalar qo'llaniladi, ularning ketma-ket bajarilishi odatda mehnat natijalarini belgilaydi. Shu sababli, uzumning o'sishi, rivojlanishi va meva berishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy qishloq xo'jaligi faoliyatini aniqlash juda muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2022- yilda barcha toifadagi xo'jaliklarda yetishtirilgan uzum 1 760,6 ming tonnani, yoki 2021- yilning mos davri bilan solishtirganda 103,9 % ni tashkil etdi. 2021-yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 5,1 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 2,6 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 7,6 % o'sish qayd etildi.

2022 -yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston 51 ta xorijiy davlatlarga qiymati 280,1 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan 318,9 ming tonna uzum eksport qilgan. Uzum eksporti o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 34,4 %ga oshgan. Tahlil yilida uzum (quritilgan uzumni qo'shgan holda) eksporti jami meva-sabzavot mahsulotlari eksportining 18,3 % ini tashkil etdi (1-rasm).



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2022- yil yanvar-dekabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Uzum (quritilgan uzumni qo'shgan holda)</p> <p>280,1 mln. AQSH dollari</p> <p>318,9 ming tonna</p> <p> 34,4 % ↑</p>	<p>Karam</p> <p>39,8 mln. AQSH dollari</p> <p>150,0 ming tonna</p> <p> 82,4 % ↑</p>	<p>Xurmo</p> <p>52,0 mln. AQSH dollari</p> <p>85,4 ming tonna</p> <p> 50,9 % ↑</p>	<p>Pomidor</p> <p>57,8 mln. AQSH dollari</p> <p>76,4 ming tonna</p> <p> 3,4 % ↓</p>
<p>Shaftoli</p> <p>68,1 mln. AQSH dollari</p> <p>76,7 ming tonna</p> <p> 55,1 % ↑</p>	<p>Mosh</p> <p>93,5 mln. AQSH dollari</p> <p>122,4 ming tonna</p> <p> 8,6 % ↓</p>	<p>Qovun va tarvuz</p> <p>37,2 mln. AQSH dollari</p> <p>136,6 ming tonna</p> <p> 63,9 % ↑</p>	<p>Piyoz</p> <p>42,4 mln. AQSH dollari</p> <p>216,7 ming tonna</p> <p> 52,7 % ↑</p>

1-rasm. Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti, 2022 y.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy Xalq Respublikasi hamda Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

O'zbekistonning iqlim sharoiti uzum etishtirish uchun nixoyatda qulay. Issiq yozning davomiyligi, nisbiy namlikning past bo'lishi, a'lo sifatli mayiz va xo'raki uzum navlarining yetishtirilishi, xalkning an'anaviy tajribalari, shuningdek fan yutuqlari, quyoshli ochiq havoda va soyada meva etishtirish usullaridan keng foydalanishga, nisbatan kam mablag' sarflab, yuqori sifatli mahsulot olishga imkon beradi. Uzumchilikning iqtisodiy samaradorligi ham, ijtimoiy ahamiyati ham katta. Masalan, 1 gektar xo'raki uzum yetishtirish uchun o'rtacha 100 million so'm xarajat qilib, 4 yildan keyin yiliga 250 million so'm sof foyda olish mumkin. Shuningdek, uzum danagidan olinadigan yog' ham jahon bozorida yuqori baholanadi. Yana bir muhim jihati, 1 gektar g'alla maydonida 2 kishi ishlab, ko'pi bilan 20 million so'mlik mahsulot yetishtirilsa, uzumchilikda, ayniqsa, shpaler usulida 10 nafargacha aholini ish bilan ta'minlab, 300 million so'mlik mahsulot ishlab chiqarish hamda o'rtacha 25 ming dollarlik eksport qilish mumkin.

Biroq, mintaqa tuproqlarining asosiy qismining tabiiy unumdorligi past bo'lgan sharoitda uzum hosilini oshirish uchun mineral oziqlantirishning yangi qishloq xo'jaligi usullarini qo'llash kerak. Ushbu usullar o'simlikni makro va mikroelementlar bilan tez to'ldirishni ta'minlaydigan maxsus murakkab o'g'itlarning suvli eritmalari bilan bargdan oziqlantirishni o'z ichiga oladi. Respublika viloyatlarining qurg'oqchil sharoitida mineral o'g'itlardan foydalanish uzumchilikni intensivlashtirishning samarali va zarur usuli bo'lib, ushbu ekinning hosildorligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

Jahonda uzum savdosi yildan yilga o'sib bormoqda, lekin dunyodagi eng yirik uzum yetishtiruvchi davlatlardan biri O'zbekistonning jahon bozoridagi o'rni qisqarib boryapti. Respublikamizda uzumchilik tarmog'ining rivojlanishi, uzumchilik tarmog'i samaradorligining o'sishi bilan birgalikda uzum va uni qayta ishlash mahsulotlarini eksport qilish, jahon bozori talablariga mos, raqobatbardosh mahsulotlarni yetishtirishda yechimini kutayotgan ba'zi

muammolar mavjud. Davlatimiz rahbari aytganlaridek, "Meva-sabzavotchilikda ham ko'plab klasterlar tashkil etilgan. Lekin natijalar mavjud salohiyat darajasida emas. Masalan, bu tarmoqda eksport miqdorini hozirgi 1 milliard 200 ming dollardan 5 milliard dollarga ko'paytirish mumkinligi hisob-kitob qilingan. Bu sohada hali qancha ish o'rni, oylik, soliq bor. Ishni to'g'ri tashkil etib, meva-sabzavotchilikda yuqori natija qilish mumkin. "Oyog'imizning tagida" imkoniyat turibdi".

Masalaning yechimlaridan biri bu - yangi navlarni yaratishdir. Ma'lumot uchun: O'zbekistondagi 70 foizdan ko'p bog'lar urug'li uzum bog'lardir. O'zbekistonda eng ko'p tarqagan uzumlar ro'yxatida qora kishmish va oq husayni yetakchi. Ketmonsopi va kelinbarmoq ham yuqori o'rinda. Lekin bu navlar husayning bir turi hisoblanadi. Jahon savdo rastalarida esa bu uzumlar "modadan qolyapti". Faqatgina qora kishmish dunyo bozorida o'rini saqlab qolishi mumkin. Sababi, uning danagi yo'q va qora mayizi sifatli chiqadi. Bizda kelinbarmoq navli uzum bog'lar barpo etish haliyam davom etmoqda. Danakli uzumga bundan keyin eksport bozorida joy yo'qligini anglash vaqti keldi. Bugungi xorijiy iste'molchi ixchamroq boshli, shakari pastroq uzumni talab qilmoqda. Bizda esa katta shingilli uzum etishtirilmogda, shuningdek, bizning mevalar, ayniqsa uzumda shakar miqdori yuqori. Yangi navlarni keltirish esa katta muammo. "O'simliklar karantini va himoyasi agentligi" tashkiloti yangi navlar bilan yangi kasalliklar kirib kelish ehtimoli ortishini sabab qilib, chetdan ko'chat olib kirishni tavsiya etmaydi. Demak, asosiy e'tiborni seleksiyaga qaratib, yangi eksportbop navlarni o'zimizda yaratishimiz zarur. Bining uchun etarli sharoitlar bor.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, chet ellik xaridorlar uchun nafaqat mevaning ko'rinishi, sifati, balki bog'da yetilishi, tashish, saqlash, bojxona, logistika, umuman hamma jarayonlar qiziqdir. Xorijlik xaridorlar hamma bosqichni surishtirishadi. Qadoqlashdagi muammo ham katta rol o'ynaydi. Xorijlik xaridorlar biologik parchalanuvchi idishni qadrlashadi. Biz hanuz asosan yelim qutida eksport qilyapmiz. Yelim esa chirimaydi, atrof-muhitga zarar keltiradi. Yog'och quti bilan ham muammo yechilmaydi, chunki uni tayyorlash uchun daraxt kesish kerak, bu ham tabiatga zarar yetkazadi. Uzumchilik agroklastarlari, fermer va dehqon xo'jaliklari, eksport qiluvchi korxonalar va boshqalarda xalqaro standartlarni (GlobalG.A.P, Organik va boshqalar) keng ko'lamda joriy etish muammoni echimlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ibragimova Robiyajon. (2023). O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini xavfsizligini ta'minlashning yo'nalishlari. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(5), 318-323. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/view/1825>
2. Ibragimov M.M. Uzumchilik mahsulotlarini eksport qilishda mavjud muammolar yechimi // "Экономика и социум", №6 (109), 2023. 722-725 b.
3. <https://east-fruit.com/novosti/dorozhnyuy-kartu-razvitiya-vinogradarstva-razrabotali-v-uzbekistane/>